

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirining
2025 yil "23" iyundagi
180-sonli buyrug'iga
ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN DERMATOLOGIYA VA
KOSMETOLOGIYA ILMIIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**«KO'P SHAKLLI EKSSUDATIV ERITEMA»
NOZOLOGIYASI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

Toshkent 2025

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston Respublikasi
sog‘liqni saqlash vazirligi
RIDV va KIATM direktori
Sabirov U.Y.



«24» mart 2025 yil.

«KO‘P SHAKLLI EKSSUDATIV ERITEMA»
NOZOLOGIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK
PROTOKOLI

Toshkent 2025

**"KO'P SHAKLLI EKSSUDATIV ERITEMA"
NOZOLOGIYASINING TASHXISLASH VA DAVOLASH
BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLI**

Toshkent 2025

Kirish qismi

KXT-10/11 kodlari:

L51	Ko'p shaklli ekssudativ eritema	EB12	Ko'p shaklli eritema
L51.0	Ko'p shaklli nobullyoz eritema	EB12.0	Terining zararlanishi bilan ko'p shaklli ekssudativ eritema
L51.1	Ko'p shaklli bullyoz eritema (Stivens-Jonson sindromi)	EB12.1	Teri va shilliq qavatlarining zararlanishi bilan ko'p shaklli ekssudativ eritema
L51.2	Toksik epidermal nekroliz (Layella sindromi)	EB12.Y	Boshqa aniqlangan ko'p shaklli eritema
L51.8	Boshqa ko'p shaklli eritema	EB13	Stivens-Jonson sindromi yoki toksik epidermal nekroliz
L51.9	Aniqlanmagan ko'p shaklli eritema	EB13.0	Stivens-Jonson sindromi
		EB13.1	Toksik epidermal nekroliz yoki Layel sindromi
		EB13.2	Stivens-Jonson sindromi va toksik epidermal nekrolizning birga kelishi
		EH63	Dorilar ta'sirida kelib chiqqan Stivens-Jonson sindromi va toksik epidermal nekroliz
	https://mkb-10.com/index.php?pid=11157		https://icd11.ru/

Protokolni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish sanasi: 2025 yil, qayta ko'rib chiqish sanasi 2028 yil yoki yangi asosiy dalillar paydo bo'lishi bilan taqdim etilgan tavsiyalarga kiritilgan barcha tuzatishlar tegishli hujjatlarda e'lon qilinadi.

Ushbu klinik protokol va standartni ishlab chiqish uchun mas'ul muassasa: Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

Milliy klinik bayonnomani yaratish bo'yicha ishchi guruh tarkibi:

Sabirov Ulug'bek Yusufxanovich – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan dermatologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (O'zRSSHVIDV va KIATM) direktori, tibbiyot fanlari doktori, professor.

Alimova Sevara Muradovna – O'zRSSHVIDV va KIATM dermatovenerolog, dermatokosmetolog shifokori

Akromov Anvarxon Ravshanxon o'g'li – O'zRSSHVIDV va KIATM mikoz muammolarini o'rganish ilmiy laboratoriyasi hodimi.

Bohodirova Afruza Axrorovna – O'zRSSHVIDV va KIATM ilmiy kotibi.

Taqrizchilar:

Batpenova Gulnar Riskeldiyevna – tibbiyot fanlari doktori, professor, "Ostona tibbiyot universiteti" AJ immunologiya kursi bilan dermatovenerologiya kafedrasini mudiri, "Qozog'iston dermatovenerologlar va dermatokosmetologlar uyushmasi" prezidenti.

Inoyatov Dilshod Anvarovich – PhD, O‘zRSSHVIDV va KIATM maslahat poliklinikasi dermatovenerologi

Texnik ekspert baxolash va taxrirlash:

Inoyatov Avaz Shavkatovich – t.f.d., davolash ishlari bo‘yicha direktor muovini, klinika bosh shifokori.

Djalilov Dilshod Sayfullaevich – t.f.n., ilmiy ishlar bo‘yicha direktor muovini.

Mazkur klinik protokol va standartlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazir o‘rinbosari Basitxanova E.I, Tibbiy sug‘urta boshqarmasi boshlig‘i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi boshlig‘i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo‘limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko‘magi asosida ishlab chiqilgan.

Muhokama bayonnomasidan ko‘chirmaning sanasi va raqami: O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi RIDV va KIATM ning Ilmiy kengashi tomonidan 27.03.2025 yilda o‘tkazilgan yig‘ilishning 3-sonli bayonnomasidan ko‘chirma

Qoʻllanilgan qisqartmalar roʻyxati:

KSHEE	Koʻp shaklli ekssudativ eritema
KXT	Kasalliklarning xalqaro tasnifi
IXLA	Immunoxemilyuminessent analiz
IFLA	Immunoflyuoressent analiz
IFA	Immunoferment analiz
NYQV	Nosteroid yalligʻlanishga qarshi vositalar
PZR	Polimeraza zanjir reaksiyasi
MPR	Mikropretsipitatsiya reaksiyasi
RPR	Rapid Plasma Reagin
KSR	Kompleks serologik reaksiya
RIF	Reaksiya immunofluoressensiya
OTIR	Oqish treponemalarning immobilizatsiya reaksiyasi
PGAR	Passiv gemaglyutinatsiya reaksiyasi
IXA	Immunoxromatografik analiz
IgG va IgM	Immunoglobulinlar G va M
OITV	Odam immunitet tanqisligi virusi
OITS	Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi
JSST	Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti
DNK	Dezoksiribo nuklein kislota
PKLT	Past koʻrsatkichli lazer impulslar
KHQB	Koloniya hosil qiluvchi birlik

Mundarija

"KO'P SHAKLLI EKSSUDATIV ERITEMA" NOZOLOGIYASINING TASHXISLASH VA DAVOLASH BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLI.....	5
"KO'P SHAKLLI EKSSUDATIV ERITEMA" NOZOLOGIYASIDA TIBBIY YONDASHUV BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLI.....	43
"KO'P SHAKLLI EKSSUDATIV ERITEMA" NOZOLOGIYASINING TIBBIY REABILITATSIYASI VA PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLI	48

Bayonnomadan foydalanuvchilar:

1. Shifokor dermatovenerologlar;
2. Umumiy amaliyot shifokorlari;
3. Shifokor pediatrlar;
4. Shifokor laborantlar;
5. Sog'liqni saqlash tashkilotchilari;
6. Klinik farmakologlar;
7. Talabalar, klinik ordinatorlar, magistrlar, aspirantlar, tibbiyot OTM o'talabalari;
8. Ushbu patologiyaga ega bemorlar, ularning oila a'zolari va parvarishda qatnashayotgan shaxslar.

Ushbu protokol ko'p shaklli eksudativ eritemani tashxislash va davolashning zamonaviy usullarini hamma joyda sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu nozologiyadagi bemorlar toifasi: ko'p shaklli eksudativ eritemaga shubha qilingan bemorlar va tasdiqlangan tashxisga ega shaxslar tekshiruvdan o'tkaziladi.

Dalillarga asoslangan tibbiyotdan foydalangan holda dalillar darajasi shkalasi. Tashxislash uslublari (diagnostik aralashuvlar) uchun dalillar ishonarliligi darajalari (DID)ni baholash shkalasi

DID	Ma'nosi
1	Referensli uslub nazorati ostida tadqiqotlarning sistematik sharhi yoki meta-tahlil qo'llanilishi bilan amalga oshirilgan randomizirlangan klinik tadqiqotlar sharhi
2	Referensli uslub nazorati ostida o'tkazilgan alohida (ayrim) tadqiqotlar yoki meta-tahlil qo'llanilgan randomizirlangan klinik tadqiqotlardan tashqari alohida (ayrim) randomizirlangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarning sistematik sharhi
3	Referensli uslub bilan izchil nazorat etilmagan tadqiqotlar yoki tekshirilayotgan uslubga nisbatan mustaqil bo'lmagan referensli uslubli tadqiqotlar yoki randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogortali tadqiqotlar
4	Qiyoslanmaydigan (taqqoslanmaydigan) tadqiqotlar, klinik vaziyatni yozma bayon qilish
5	Faqat ta'sir mexanizmiga asoslanishi yoki kspertlar fikrlari mavjud

Profilaktik, davolash, reabilitatsion aralashuvlar uchun dalillar ishonarliligi darajalari (DID)ni baholash shkalasi

DID	Ma'nosi
1	Meta-tahlil qo'llanilgan randomizirlangan klinik tadqiqotlarning sistematik sharhi
2	Meta-tahlil qo'llanilgan randomizirlangan klinik tadqiqotlardan tashqari alohida (ayrim) randomizirlangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarning sistematik sharhi
3	Randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogortali tadqiqotlar

4	Taqqoslanmaydigan tadqiqotlar, klinik vaziyatning yoki vaziyatlar seriyalarining yozma bayoni, “vaziyat-nazorat” tadqiqotlari
5	Faqat ta’sir mexanizmi asoslanishi (klinikoldi tadqiqotlar) yoki ekspertlar fikrlari mavjud

Profilaktik, davolash, reabilitatsion aralashuvlar uchun tavsiyalar ishonarliligi darajalari (TID) ni baholash shkalasi

DID	Ma’nosi
A	Kuchli tavsiya (samaradorlikning (oqibatning) ko‘rib chiqilayotgan barcha mezonlari muhim hisoblanadi, hamma tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega, ularning qiziqtirayotgan oqibatlar bo‘yicha xulosalari muvofiqlashtirilgan hisoblanadi)
B	Shartli tavsiya (samaradorlikning (oqibatning) ko‘rib chiqilayotgan barcha mezonlari muhim hisoblanmaydi, hamma tadqiqotlar ham yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega emas va/yoki ularning qiziqtirayotgan oqibatlar bo‘yicha xulosalari muvofiqlashtirilmagan)
C	Kuchsiz tavsiya (tegishli sifatga ega dalillarning yo‘qligi (samaradorlikning (oqibatning) ko‘rib chiqilayotgan barcha mezonlari ahamiyatsiz hisoblanadi, barcha tadqiqotlar past uslubiy sifatga ega va ularning qiziqtirayotgan oqibatlar bo‘yicha xulosalari muvofilashtirilmagan)

Asosiy qism

Kirish

Ko‘p shaklli eksudativ eritema (KSHEE) - teri va shilliq qavatlarining o‘tkir yallig‘lanish kasalligi bo‘lib, turli xil toshmalar, jumladan dog‘lar, papulalar, vezikulalar va bullalar paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. KSHEE ning aniq sababi hali to‘liq aniqlanmagan, ammo kasallik infeksiyalar (masalan, oddiy herpes virusi) yoki ba’zi dori-darmonlarni qabul qilish natijasida kelib chiqishi mumkinligi ma’lum [1, 2, 4].

Tavsifi

Ko‘p shaklli eksudativ eritema (KSHEE) - teri va ba’zi hollarda shilliq qavatlarining turli xil stimullarga o‘tkir immunitet bilan bog‘liq yallig‘lanish reaksiyasi bo‘lib, periferik lokalizatsiyali nishonsimon zararlanish o‘choqlari bilan tavsiflanadi, takrorlanish va o‘z-o‘zidan hal bo‘lishga moyil [5].

Kasallik etiologiyasi va patogenezi

Bugungi kunga qadar ko‘p shaklli eritemaning rivojlanish sabablari va mexanizmlari to‘liq o‘rganilmagan. Ko‘pchilik hollarda ko‘p shaklli eritemaning paydo bo‘lishi gerpetik infeksiyaga bog‘liq

bo'ladi, shuningdek B va C gepatitlari, Epshteyn-Barr viruslari, adenoviruslar, Mycoplasma pneumonia, bakterial va zamburug'li infeksiyon agentlar ta'siri ostida ham kasallik namoyon bo'lishi mumkin. Oddiy herpes virusining DNK si 60-90% bemorlarda toshma toshgan joy terisida aniqlanadi. Kasallikning sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin: dori-darmonlarni qabul qilish (sulfanilamidlar, penitsillinlar, barbituratlar, allopurinol, fenilbutazon), tizimli kasalliklar (sarkoidoz, tugunli periarteriit, Vegener granulomatozi, limfoma, leykemiya). Ko'p shaklli eritemada yallig'lanish jarayoni sensibillangan T-helperlar (CD4+ T-limfotsitlar) ga bog'liq [3, 6].

Epidemiologiya

Ko'p shaklli eritema barcha yoshdagi bemorlarda kuzatiladi, lekin ko'pincha o'smirlar va yoshlarda uchraydi. Bemorlar orasida erkaklar ustunlik qiladi (erkaklar va ayollar nisbati 3:2). Taxminan 30% hollarda kasallik qaytalanadi. Bolalik davrida kam uchraydi (20% hollarda) [7].

Tasnifi

https://mzdrav.rk.gov.ru/file/Mnogofornnaja_jekssudativnaja_jeritema_Klinicheskie_rekomendacii.pdf

Paydo bo'lish sababiga ko'ra:

Infeksiyon shakli - infeksiyon agentlarga, ko'pincha herpes virusiga javoban paydo bo'ladi. Mikoplazma infeksiyasi, streptokokk va boshqa bakterial infeksiyalar fonida rivojlanishi mumkin.

Toksik-allergik shakli - dori vositalarini (antibiotiklar, nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar, sulfanilamidlar va boshqalar) qabul qilishga reaksiya sifatida yuzaga keladi. Kimyoviy moddalar yoki oziq-ovqat mahsulotlarining ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kechishiga ko'ra:

O'tkir shakli - to'satdan rivojlanadi va 2-4 hafta davom etadi. Sog'aygandan keyin terida izlar odatda qolmaydi.

Qaytalanuvchi shakli - ko'pincha herpes infeksiyasi bilan bog'liq bo'lgan davriy qo'zg'alishlar bilan tavsiflanadi. Toshmalar xuddi shu joylarda paydo bo'ladi.

Klinik ko'rinishi bo'yicha:

Yengil (kichik) shakli, bunda shilliq qavatlar zararlanmagan, bemorning umumiy ahvoli buzilmagan;

Og'ir (katta) shakli - toshmalarning tarqalishi, shilliq qavatlarning shikastlanishi, umumiy zaiflik bilan tavsiflanadi.

Terida birlamchi morfologik elementlarning ustunligiga qarab:

Dog'li;

Papulyoz;

Dog‘li-papulyoz;
Vezikulyoz;
Bullyoz;
Vezikulo-bullyoz [8, 10].

Kasallikning klinik ko‘rinishi

<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/>

<https://www.rodv.ru/klinicheskie-rekomendacii/>

Ko‘p shaklli eritema o‘tkir boshlanishi bilan tavsiflanadi. Kasallik ko‘pincha prodromal hodisalar (tana haroratining ko‘tarilishi, holsizlik, mushaklar va bo‘g‘imlarda og‘riq, tomoq og‘rig‘i) bilan boshlanadi. Prodromal davrdan keyin terida polimorf toshmalar - eritemalar, papulalar, vezikulalar paydo bo‘ladi. Ko‘p shaklli eritema uchun diametri 3 sm dan kam bo‘lgan nishonsimon o‘choqlarning mavjudligi xos bo‘lib, ularning tuzilishida uchta turli zonalar ajratiladi: markaziy disk qora eritema yoki purpuradan iborat bo‘lib, nekrotik bo‘lishi yoki zich vezikulaga aylanishi mumkin; palpatsiyalanadigan oqish shish halqasi; tashqi eritema halqasi. Atipik zararlanish o‘choqlari ham uchraydi [12, 13]. Ko‘p shaklli eritemada birlamchi morfologik elementlar giperemik dog‘lar (eritemalar), papulalar va pufakchalardir. Papulalar dumaloq shaklda, aniq chegaralari bilan, kattaligi 0,3 dan 1,5 sm gacha, qizil-ko‘kintir rangda, tekis, paypaslaganda zich, markaziy qismi cho‘kishi bilan markazdan qochma o‘sishga moyil. Papulalarning periferiyasi bo‘ylab shishgan halqa hosil bo‘ladi, elementning markazi esa asta-sekin cho‘kib, sianotik tusga kiradi ("nishon" yoki "kamalak parda" yoki "buqa ko‘zi" simptomi) [3]. Subyektiv ravishda toshmalar qichishish bilan birga keladi. Pufakchalar yumaloq shaklda, kichik, yassi, qalin qopqoqqa ega, opalessiyalanuvchi suyuqlik bilan to‘ldirilgan, odatda papulalarning markazida joylashgan. Patologik elementlar bir-biri bilan qo‘shilib, girlyanda va yo‘llar hosil qilishga moyil bo‘ladi.

Ko‘p shaklli eritemada ikkilamchi morfologik elementlar eroziyalar, qatqaloqlar, tangachalar, giperpigment dog‘lar bo‘lib, klinik belgilari bo‘lmaydi. Shilliq qavatlarda pufakchalar paydo bo‘lishi mumkin, ular yorilib, og‘riqli eroziyalarni hosil qiladi. Toshmalar odatda to‘satdan paydo bo‘ladi, ko‘pincha periferiya bo‘ylab joylashadi, oyoq panjalari va qo‘llarning orqa yuzasi terisida, bilaklar va boldirlarning yozuvchi yuzalarida, lablarning qizil hoshiyasida, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatida simmetrik joylashadi. Ko‘z va jinsiy a‘zolarining zararlanishi kamroq kuzatiladi. Toshmalarning bitishi 2-3 hafta davomida chandiq qoldirmasdan davom etadi. Sobiq papulalar o‘rnida paydo bo‘lgan pigmentli dog‘lar sarg‘ish-qo‘ng‘ir rang bilan ajralib turadi [9].

Shikoyatlar:

Umumiy holsizlik, bosh og‘rig‘i, harorat ko‘tarilishi, mushak va bo‘g‘imlarda og‘riq. Tomoq va og‘iz bo‘shlig‘idagi og‘riqlar.

Anamnez:

- Infekzion-allergik shaklida organizmda surunkali infeksiya o'choqlari, retsidivlarning mavsumiylikiga ko'rsatmalar mavjud.
- Toksik-allergik shaklida dori vositalarini (sulfanilamidlar, antibiotiklar) qabul qilish uchun majburiy ko'rsatmalar mavjud. Kasallikning kechishi qaytalanuvchi, qo'zg'atuvchi omillar - sovuq qotish, o'tkir respirator kasalliklar, surunkali kasalliklarning zo'rayishi, dori-darmonlarni qabul qilish, ovqatlanishdagi xatoliklar.

Fizikal tekshiruv:

Ko'zdan kechirilganda kaftlar, bilaklar, boldirlar, tovonlar terisida "kokardlar" - murakkab element bo'lib, ko'kimtir-qizg'ish dog', pufakcha yoki papula, markazida po'stloqdan iborat. Lablarning qizil hoshiyasida gemorragik po'stloqlar aniqlanadi. Eritema fonida og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida keskin og'riqli eroziyalar, yaralar, aftlar, subepitelial pufakchalar va pufakchalar aniqlanadi. Haqiqiy polimorfizm soxta monomorfizm (zararlanishning barcha elementlari eroziyasi) kuzatiladi. Nikolskiy simptomi manfiy. Regionar limfa tugunlari kattalashgan, og'riqli, o'zaro va atrofdagi to'qimalar bilan birikmagan.

Ko'p shaklli ekssudativ eritemada diagnostik simptomlar:

Papulalarning periferiyasi bo'ylab shishgan halqa hosil bo'ladi, elementning markazi esa asta-sekin cho'kib, sianotik tusga kiradi ("nishon" yoki "kamalak parda" yoki "buqa ko'zi" simptomi) [3].

Diagnostika usullari, yondashuvlari va muolajalari:

Ko'p shaklli ekssudativ eritema tashxisi instrumental va laboratoriya tekshiruvlari bilan tasdiqlangan klinik va epidemik ma'lumotlar majmuasi asosida qo'yiladi.

Laborator tekshiruvlar:

<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31305041/>

<https://www.rodv.ru/klinicheskie-rekomendacii/>

<https://diseases.medelement.com/disease/многoформная-экссудативная-эритема/14952>

C 5	<ul style="list-style-type: none">• Umumiy qon tahlili• Zaxm skrining testlari: RMP, RPR, KSR (14 yoshdan kattalarda)• Umumiy immunoglobulin E ni IFA tahlili
C 5	Autoimmun dermatozlar (vulgar po'rsildoq, paraneoplastik po'rsildoq, IgA-po'rsildoq, bullyoz pemfigoid) bilan qiyosiy tashxislash uchun to'g'ridan-to'g'ri RIF tahlili

C 5	Retsidivlanuvchi kechishida Sitomegalovirus (Cytomegalovirus), Epshteyn-Barr (Epstein-Barr virus), oddiy herpes 1 va 2 tiplari (Herpes simplex virus types 1, 2), herpes 6 virusi (HHV6) DNKsini PZR usulida etiologik omilni aniqlash. Material - pufak tarkibi, so‘lak, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatidan olingan qirindi. Kasallik ko‘pincha Epshteyn-Barr viruslari, sitomegalovirus, herpes 1, 2, 6 turlari bilan bog‘liq.
----------------	--

C 5	<ul style="list-style-type: none"> • Zaxmga tasdiqlovchi testlar (6 tadan 2 tasi majburiy): RIF, IFA, IFA IgG va IgM, RIBT, RPGA, IXA, Immunoblot IgG va IgM • Umumiy peshob tahlili • Umumiy najas tahlili • Qonning biokimyoviy taxlili • Qonda gamma globulin tahlili • Qonda C reaktiv oqsil tahlili • Qonda antinuklear antitanakar tahlili • Immunologik tekshiruvlar • Immunogistokimyoviy tekshiruv • Gistologik tekshiruv • Tsank hujayralari va eozinofillarga sitologik tekshiruv • IFA, IXLA, IFIA va PZR usullarida antitanalarni aniqlash • Qondagi D vitamining miqdorini IFA, IXLA usulida aniqlash • Antibiotiklarga sezgirlikni aniqlovchi mikrobiologik tekshiruv • Infeksiyalar uchun qon va biosubstratlarni tekshirish (IFA, PZR) • Molekular genetik tekshiruv • Mikologik tekshiruv • Allergotestlar
----------------	--

Instrumental tekshiruvlar:

C 5	<ul style="list-style-type: none"> • Teri holatini tashxislash-dermatoskopiya • Ichki a'zolar UTT
----------------	---

Mutaxassislar maslahati uchun ko‘rsatmalar:

C 5	<ul style="list-style-type: none"> • Oftalmolog maslahati (ko‘z shilliq qavatlari zararlanganda) • Otorinolaringolog maslahati (og‘iz va burun shilliq qavatlari zararlanganda) • Davolashni to‘g‘rilash maqsadida stomatolog maslahati (og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati zararlanganda) • Terapevt/Pediatr maslahati (yondosh kasalliklar mavjud bo‘lganda) • Allergolog maslahati
----------------	---

Differentsial diagnoz:

https://mzdrav.rk.gov.ru/file/Mnogofornnaja_jekssudativnaja_jeritema_Klinicheskie_rekomendacii.pdf

KSHEE ning qiyosiy tashxisini tugunli eritema, Darye halqasimon eritemasi, toksiodermiya, ikkilamchi zaxm, Svit sindromi, pufakli dermatozlar, tizimli qizil yugurik, gerpetik stomatit, Kawasaki kasalligi, urtikar vaskulit, qizil yassi temiratkinining eroziv shakli bilan o‘tkazish kerak [11].

Davolash, shu jumladan medikamentoz va nomedikamentoz terapiya, parhez terapiyasi, og‘riqsizlantirish, tibbiy ko‘rsatmalar va davolash usullarini qo‘llashga qarshi ko‘rsatmalar:

<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/34577844/>

<https://www.rodv.ru/klinicheskie-rekomendacii/>

Ambulator va statsionar darajada davolash taktikasi: Davolash klinik sog‘ayishga, simptomlarning og‘irligini kamaytirishga qaratilgan [9, 11].

Nomedikamentoz davo

<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/34577844/>

<https://www.rodv.ru/klinicheskie-rekomendacii/>

Fizioterapevtik muolajalar:

Ko‘p shaklli eritema bilan og‘rigan bemorlarga davolash samaradorligini oshirish maqsadida fizioterapevtik muolajalarni birgalikda qo‘llash tavsiya etiladi:

C5	To‘lqin uzunligi 311 nm bo‘lgan tor polosali o‘rta to‘lqinli ultrabinafsha nur terapiyasi (UVB-311) Mahalliy qo‘llash uchun vositalarni qo‘llagan holda ultratovush terapiyasi Past darajali yorug‘lik terapiyasi LLLT Infraqizil lazer Qutblangan polixromatik nur
-----------	---

Qo‘shimcha davolash usullari:

C5	Plazmaferez Ozonoterapiya PKLT
-----------	--------------------------------------

Medikamentoz davo:

O‘zbekiston Respublikasida bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida va majburiy ijtimoiy tibbiy sug‘urta tizimida ro‘yxatdan o‘tkazilmagan dori vositalarining klinik protokolga kiritilishi xarajatlarni qoplashga asos bo‘lmaydi.

<https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/34577844/>

<https://www.rodv.ru/klinicheskie-rekomendacii/>

Asosiy dori vositalari ro'yxati (qo'llanilish ehtimoli 100%):

1-jadval

Dori-vositaning (xalqaro patentlanmagan) nomi	Dori-vositaning dozirovkasi va qo'llanilishi	Isbotlanganlik darajasi
Dezloratadin	Tabletkalar 5 mg; eritma 10 ml ichishga kuniga 1 marta 7-14 kun	A <a href="https://emedicine.medscap
e.com/article/1122915-
treatment">https://emedicine.medscap e.com/article/1122915- treatment
Setirizin	Tabletkalar 5 mg; eritma 10 ml ichishga kuniga 1 marta 7-14 kun	A <a href="https://emedicine.medscap
e.com/article/1122915-
treatment">https://emedicine.medscap e.com/article/1122915- treatment
Levosetirizin	Tabletkalar 5 mg; eritma 20 tomchi ichishga kuniga 1 marta 7-14 kun	A <a href="https://emedicine.medscap
e.com/article/1122915-
treatment">https://emedicine.medscap e.com/article/1122915- treatment
Xloropiramin	Tabletkalar 25 mg dan kuniga 3-4 marta, kattalarga m/o yoki v/i yuborilganda bir martalik doza 20-40 mg ni tashkil qiladi	A <a href="https://emedicine.medscap
e.com/article/1122915-
treatment">https://emedicine.medscap e.com/article/1122915- treatment
Ebastin	Ichishga. Kattalar uchun tavsiya etilgan doza - 10-20 mg/sut..	A <a href="https://emedicine.medscap
e.com/article/1122915-
treatment">https://emedicine.medscap e.com/article/1122915- treatment
Loratadin	Tabletkalar 5 mg; eritma 10 ml ichishga kuniga 1 marta 7-14 kun	A <a href="https://emedicine.medscap
e.com/article/1122915-
treatment">https://emedicine.medscap e.com/article/1122915- treatment
Mebgidrolin	Ichishga (ovqatdan keyin). Kattalar va 10 yoshdan katta bolalarga - 50- 200 mg dan kuniga 1-2 marta; maksimal dozalar: bir martalik - 300 mg, kunlik - 600 mg; 5 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarga - 100- 200 mg/kun, 2 yoshdan 5 yoshgacha - 50-150 mg/kun, 2 yoshgacha - 50- 100 mg/kun.	A <a href="https://emedicine.medscap
e.com/article/1122915-
treatment">https://emedicine.medscap e.com/article/1122915- treatment

Ketotifen	Kattalarga - 1 mg dan kuniga 2 marta ertalab va kechqurun ovqatlanish paytida ichish uchun. Zarur bo'lsa, dozasi 2 mg gacha kuniga 2 marta oshiriladi. 3 yosh va undan katta bolalarga - 1 mg dan kuniga 2 marta.	A https://emedicine.medscape.com/article/1122915-treatment
Prednizolon	ichishga, v/i 0,5 – 1,5 mg/kg/kuniga sxema bo'yicha uzoq vaqtga	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Metilprednizolon	ichishga, v/i 0,5 – 1,5 mg/kg/kuniga sxema bo'yicha uzoq vaqtga	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Deksametazon	ichishga, m/o, v/i 0,075- 0,225 mg/kg/kuniga sxema bo'yicha uzoq vaqtga	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Betametazon	ichishga, m/o, v/i 0,075- 0,225 mg/kg/kuniga sxema bo'yicha uzoq vaqtga	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Triamtsinalon	ichishga, m/o 0,4-1,2 mg/kg/kun	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/34577844/
Meglyumin natriy suksinat	V/i tomchilab, tezligi 90 kap/min (1-1,5 ml/min) dan 400 ml/sut gacha.	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Natriy tiosulfat	v/i 5–50 ml 30% eritmasi tomchilab Ichishga - 2-3 g 10% li eritma ko'rinishida qabul qilish uchun.	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Kaltsiy glyukonat	V/i, v/i sekin (2-3 daqiqa davomida) yoki tomchilab yuboriladi. Kattalar uchun - 100 mg/ml eritmada 5-10 ml miqdorda har kuni, kunora yoki ikki kundan keyin qo'llaniladi. Bolalarga vena ichiga sekin (2-3 daqiqa davomida) yoki tomchilab, yoshiga qarab, har 2-3 kunda 100	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/

	mg/ml eritmadan 1 ml dan 5 ml gacha miqdorda yuboriladi.	
Kaliy xlorid	40 mg/ml. Vena ichiga to'g'ridan-to'g'ri yoki tomchilatib yuboriladi. 50 ml 40 mg/ml kaliy xlorid eritmasi inyeksiya uchun suvda 10 marta (500 ml gacha) eritiladi, izotonik eritma hosil qilinib, vena ichiga tomchilatib (daqiqasiga 20-3)	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Kaliy asparaginat + Magniy asparaginat	Preparat ovqatdan so'ng qabul qilinishi kerak, chunki me'dadagi kislot muhiti uning samaradorligini pasaytiradi. Eritma 5 ml. Preparat vena ichiga (tomchilatib yoki ravon) yuboriladi. Dozasi qo'llash ko'rsatmalariga qarab individual belgilanadi.	C https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Metilen ko'ki	1-3% - mahalliy, teriga yoki shilliq qavatlarga qo'yish (tamponda yoki namlash yo'li bilan) kuniga 2-3 marta.	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Kaliy permanganat	0,01-0,1% - mahalliy, kuniga 2-3 marta toshmalar ustiga suriladi.	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Xlorgeksidin	0,5% yoki 1% - mahalliy, kuniga 2-3 marta toshmalar ustiga suriladi.	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Klobetazol propionat 0,05 %	sirtga kuniga 1-2 marta 2-4 hafta mobaynida	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Mometazon furoat: 0,1%	kuniga 1-2 marta, 3-4 hafta davomida	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Triamtsinolon atsetonid: 0,5%	kuniga 1-2 marta, 3-4 hafta davomida	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/

Aklometazon dipropionat 0,05%	kuniga 2 marta, 3-4 hafta davomida	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Fluotsinol atsetonid 0,01%	kuniga 2-3 marta, 4 haftagacha	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Deksametazon 0,1%	kuniga 2-3 marta, 4 haftagacha	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Metilprednizolon atseponat: 0,1%	kuniga 2 marta, 7-10 kun davomida	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Gidrokortizon butirat 0,1%	kuniga 2 marta, 7-10 kun davomida	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Betametazon dipropionat: 0,1%; 0,05%	kuniga 2 marta, 10-14 kun davomida	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Betametazon dipropionat + gentamitsin sulfat	kuniga 2 marta, 7-10 kun davomida	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Lidokain gidroxlorid + moychechak guli ekstrakti	Mahalliy. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati va labni og'riqli yoki yallig'langan joylariga 0,5 sm uzunlikdagi preparat tasmasi yengil uqalovchi harakatlar bilan surtib, kuniga 3 marta qo'llaniladi.	A https://emedicine.medscape.com/article/1122915-treatment

Izoh: Agar ma'lum bir guruhga kiruvchi zarur preparat shifoxonada qo'llash uchun tasdiqlangan ro'yxatda bo'lmasa yoki vaqtincha mavjud bo'lmasa, shifokor muqobil preparatni buyurishi mumkin (har xil ta'sir mexanizmiga ega, ammo bitta terapevtik maqsadga ega bo'lgan preparatlar). Dori vositasini tanlash klinik vaziyat, bemorning ahvoli va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Preparatlarning dozasi va miqdori shifokor tomonidan individual ravishda belgilanadi.

Terini namlash uchun preparatlar (emolentlar), tibbiy buyumlar, biologik faol qo'shimchalar, mikroelementlar, vitaminlar, antioksidantlar va kosmetologik vositalari, agar ular qarshi ko'rsatmalarga ega bo'lmasa va O'zbekiston Respublikasi hududida sertifikatlangan bo'lsa, dermatologik bemorlarni davolashda zaruratga ko'ra qo'llanilishi mumkin.

Asosiy dori vositalari ro'yxati (qo'llash ehtimoli 100% dan kam):

2-jadval

Dori-vositaning (xalqaro patentlanmagan) nomi	Dori-vositaning dozirovkasi va qo'llanilishi	Isbotlanganlik darajasi
Eritromitsin	250-500 mg dan kuniga 4 marta 7-10 kun davomida ichishga	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31305041/
Klaritromitsin	250-500 mg dan kuniga 2 marta 7-10 kun davomida ichishga	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31305041/
Azitromitsin	500 mg dan kuniga 1 mahal 3 kun davomida ichiladi	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31305041/
Seftriakson	Kuniga 1-2 g yoki kuniga 20-80 mg/kg, mushak ichiga yoki vena ichiga 10 kun davomida	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31305041/
Levofloksatsin	Tab 250-500 mg ichichga, har kuni 2 hafta davomida	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31305041/
Amoksitsillin + Klavulan kislotasi	Kattalar va 12 yoshdan katta bolalarga (massasi 40 kg va undan ortiq) plyonka qobiq bilan qoplangan tabletkalar, 250 mg + 125 mg 1 tabletkadan kuniga 3 marta yoki 875 mg + 125 mg - 1 tabletkadan kuniga 2 marta 5-14 kun davomida yoki kattalar va 12 yoshdan katta bolalarga (massasi 40 kg va undan ortiq) dispergiranadigan tabletkalar - 500/125 mg dan kuniga 3 marta 5-14 kun davomida, 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan yoki tana massasi 40 kg dan kam bo'lgan bolalarga - 125/31,25 mg yoki 250/62,5 mg dan kuniga 2400/600 mg dan oshmaydigan dozalarda, 3 qabulda 5-14 kun davomida.	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31305041/
Atsiklovir	200 mg og'iz orqali kuniga 5 marta 5-7 kun davomida	A https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/3339142/
Valatsiklovir	500 mg og'iz orqali kuniga 2 marta 5-10 kun davomida	A https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8467974/#:~:text=In%20both%20HSV%2Dassociated%20EM,%2C%20twice%20daily%20%5B1%5D.

Famtsiklovir	250 mg og‘iz orqali kuniga 2 marta 7 kun davomida	A https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8467974/#:~:text=In%20both%20HSV%2Dassociated%20EM,%2C%20twice%20daily%20%5B1%5D.
Natriy laktat + Sorbitol + Kaliy xlorid MgCl ₂ , NaCl, CaCl ₂	Kattalarda v/i tomchilab minutiga 40-60 tomchi tezlikda. 3-5 kun davomida tana vazniga 6-7 ml/kg	C https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31305041/
Nandrolon dekanoat (anabolik)	50 mg/ml. Preparat chuqur mushak ichiga yuboriladi. Kattalar uchun o‘rtacha yakka doza 25–50 mgni tashkil qiladi.	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24034067/
Meglyumin akridonatsetat	24 soat oraliq bilan 3 ta inyeksiya va keyinchalik 48 soat oraliq bilan yana 3 ta inyeksiya	C https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31305041/
Tiloron digidroxlorid	1-2 tabletkadan (250 mg) dastlabki ikki kun davomida kuniga 1 marta, so‘ngra 2-4 hafta davomida kun ora 1 tabletkadan (125 mg) ichiladi. Yoki remissiya davrida 0,125 g (1 tabletkada) ovqatdan keyin, har haftaning dastlabki ikki kunida, jami 5 hafta. Kurs dozasi 1,25 g.	B https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31305041/
